“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Sug‘urta shartnomasida taraflar majburiyatini ta’minlashni takomillashtirish masalalari

Матлуба Аминжонова,
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси кафедраси бошлиғи, ю.ф.д., проф
Huquqshunos
e-mail: matlubaaminjanova5@gmail.com

Аннотация. Hayotni sug‘urta qilish va umumiy sug‘urta sohasida tuziladigan sug‘urta shartnomalari majburiy, ixtiyoriy, majburiy davlat sug‘urtasi turlarida tuzilishi mumkin.

Калит сўзлар. Sug'urta, shartnoma, mulk

Аннотация. Договоры страхования, заключаемые в сферах страхования жизни и общего страхования, могут заключаться в видах обязательного, добровольного, обязательного государственного страхования.

Ключевые слова. страхование, договор, имущество

Annotation. Insurance contracts concluded in the spheres of life insurance and general insurance may be concluded in the form of compulsory, voluntary, and compulsory state insurance.

Keywords. insurance, contract, property

Respublikamizdagi sug‘urta shartnomasi tarafining majburiyatlari xususida so‘z yuritganda dastlab uning qanday turlarga bo‘linishiga ahamiyat qaratish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingunga qadar shaxsiy va mulkiy sug‘urta sohalari mavjud bo‘lib, ushbu qonun qabul qilingandan so‘ng sug‘urta hayotni sug‘urta qilish va umumiy sug‘urta qilish sohasiga bo‘lindi.

Hayot sug‘urtasi va umumiy sug‘urta sohalari bilan bog‘liq tuziladigan sug‘urta shartnomalari majburiy, ixtiyoriy, majburiy davlat sug‘urtasi turlarida tuzilishi mumkin.

Hayot sug‘urtasi jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘ligi, mehnat qobiliyati va qo‘shimcha pul ta’minoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilishdan iborat bo‘lib, bunda sug‘urtaning shartnoma bo‘yicha eng kam muddati bir yilni tashkil etadi va sug‘urta

summalarining sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan oshirilgan foizini yoki davriy to‘lovlarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy sug‘urta esa shaxsiy, mulkiy sug‘urta, majburiyatlarni sug‘urta qilish hamda hayotni sug‘urta qilish sohasiga taalluqli bo‘lmagan boshqa sug‘urta shartnomalaridan iborat.

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta’minlash maqsadida qonunda hayot, sog‘liq va mol-mulkning majburiy sug‘urtasi belgilab qo‘yilishi mumkin.

Davlat majburiy sug‘urtasi esa fuqarolar va davlatning manfaatlarini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan sug‘urta qildiriladi va bu shartnoma bo‘yicha sug‘urta badallarini to‘lash davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan sug‘urta shakllari turlicha talqin etib kelinmoqda.

Albatta, davlat majburiy sug‘urtasiga milliy amaliyotimizdan ham ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, aynan harbiy xizmatchilarning, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra sudyalarning, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra prokuratura xodimlarining, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra sud ekspertlarining va qonun bilan belgilangan boshqa xodimlarning hayoti va sog‘ligini davlat majburiy sug‘urta qilinishi shular jumlasiga kiradi. Ya’ni, aytish mumkinki, bugungi kunda davlat majburiy sug‘urtasining milliy amaliyotimizdagi ahamiyati jadallik bilan rivojlanib bormoqda. L. Klochenko ham o‘z asarlarida sug‘urta xizmatlarining rivojlanishi bevosita javobgarlikni majburiy sug‘urta qilish kabi zamonaviy turlari bilan ifodalanadi, degan fikrni bildiradi.

Bunday turdagi sug‘urta shartnomalari faqat davlat sug‘urta kompaniyalari bilan tuzilishi, ya’ni bir tomonda qarzdor sifatida davlat o‘ziga majburiyat olishi, ikkinchi tomonda kreditor sifatida, aytaylik, prokuratura, sud va ekspertiza organlari turishini izohlash mumkin.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, ushbu turdagi sug‘urta shartnomalarini tuzish yuzasidan tasdiqlangan yo‘riqnomalarda ko‘rsatilgan sug‘urta tovonini talab qilish muddatining fuqarolik qonun hujjatlariga zid ravishda belgilanganligi tahlil etildi. Chunonchi, Fuqarolik kodeksining 163-moddasida da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar belgilangan bo‘lib, ular qatoridan fuqarolarning hayotiga yoki sog‘ligiga yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablar bo‘yicha ham da’vo muddati cheklanmagan. Bu talablar bo‘yicha da’vo, qo‘zg‘atilishidan oldingi ko‘pi bilan uch yil bo‘yicha qondiriladi. Demak, hozirgi kunda sug‘urta idoralarida qo‘llanilayotgan yo‘riqnomalarda fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga yetkazilgan zararlar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini olish muddatining cheklab qo‘yilganligi qonunga zid hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasining hamda Belarussiya Respublikasining Fuqarolik kodekslarida sug‘urta shartnomalari nizosi bo‘yicha da’vo muddati umumiy 3 yil qilib belgilangan.

Sug‘urta xizmati ko‘rsatish sohasidagi sug‘urta shartnomasining yana bir turi – majburiy sug‘urta shartnomasi boshqa

shartnomalardan sug‘urta puli, badali maxsus qonunlarga asosan tuzilishi va badal miqdori ham qat’iy belgilanishi hamda uni faqat sug‘urta qildiruvchi tomonidan to‘lanishi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda bu turdagi shartnomalar asosan fuqarolarning uchinchi shaxs oldidagi javobgarligini majburiy sug‘urtalash, kredit yuzasidan garovga qo‘yilayotgan mulkni majburiy sug‘urtalash, garov mulkini kreditni qoplash yuzasidan yetmagan qismini sug‘urtalashda qo‘llanilmoqda.

Majburiy sug‘urta shartnomasining shartlari qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ularni ixtiyoriy ravishda o‘zgartirish mumkin emas. Bu turdagi shartnomalarda majburiyatlarning vujudga kelishi kreditorning sug‘urta badalini to‘lashi bilan bir vaqtda shartnoma imzolanganidan boshlab kuchga kirishini belgilaydi. Shuningdek, shartnoma shartlari, tomonlarning majburiyatlari ham ayni bir me’yoriy huquqiy hujjat asosida belgilanib, bu ikki taraf uchun ham ijro etish uchun majburiydir.

Shuningdek, milliy sug‘urta kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishini ta’minlash, ilg‘or korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish orqali xalqaro reytinglar olish bo‘yicha ham aniq vazifalar belgilandi.

Jumladan, sug‘urta sohasida zamonaviy kadrlar tayyorlash, mutaxassislarni nufuzli xorijiy bilim yurtlarida o‘qitish va yetakchi kompaniyalarda malakasini oshirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Mamlakatimizda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy qilish haqida so‘z borar ekan, davlatimiz rahbari bunga puxta tayyorgarlik ko‘rish, tibbiy xizmatlarning minimal ijtimoiy paketini shakllantirish kerakligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” qonunining 2008 yil 21 fevralda qabul qilinishi respublikada majburiy sug‘urtani rivojlantirishga oid qadamlarning biri bo‘ldi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi bilan respublikadagi barcha transport egalari fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtalandi va hozirgi kunda majburiy sug‘urtaning bu turi keng qo‘llanilmoqda.

Lekin, ushbu qonunni qo‘llash bilan bog‘liq huquqiy bo‘shliqning mavjudligi ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya’ni, yangi harid qilib olinayotgan mashina egalari javobgarligini sug‘urtalash amalga oshirilmasdan, mashinaning texnik pasportini yoki davlat raqamini olish yoki almashtirish jarayonida sug‘urtalash amalga oshirilmoqda. Bunda yangi sotib olingan mashinaning texnik pasportini va nomerini almashtirish uchun belgilangan 10 kunlik muddat ichida haydovchining yo‘l hodisasi tufayli kelib chiqadigan javobgarligi sug‘urtalanmay qolmoqda. Majburiy sug‘urtaning bu turi har qanday holatda ham fuqarolarning huquq va manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilganligini e’tiborga olsak, sug‘urtalash jarayonidagi bu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida transport haydovchilari javobgarligini majburiy sug‘urtalash texnik pasportni yangilash yoki nomerni almashtirish jarayonida emas,

balki transport vositasini oldi-sotdi shartnomasini notarial idoralarida rasmiylashtirish jarayonida amalga oshirilishi sotib olingan mashina haydovchisi javobgarligini mashinani sotib olingan vaqtdan boshlab sug‘urtalashni ta’minlaydi.

Hozir respublikamizda to‘qqizta sug‘urta kompaniyasi transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish faoliyati bilan shug‘ullanmoqda. Tabiiyki, ushbu kompaniyalarning joylarda, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sug‘urta shartnomasi tuzish, jabrlanuvchilarning sug‘urta to‘lovlari haqidagi talablarini ko‘rib chiqishi va sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirishga vakolatli vakilliklari mavjud.

Amaliyotda ayrim ish beruvchilar tomonidan xodimga yetkazilgan zararni vaqtida qoplamasligi va ularga nogironlik darajasini o‘z vaqtida belgilanmasligi natijasida mehnat munosabatlari jarayonida nogiron bo‘lgan shaxslarning sarson bo‘lishiga olib keladi.

Respublikamizda ish beruvchilar tomonidan aynan mana shunday holatlarni oldini olish, ish beruvchining yuqoridagi majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirishini ta’minlash, ya’ni xodimning mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘ligiga zarar yetkazilganda yetkazilgan zararni o‘z vaqtida qoplashni ta’minlash maqsadida 2009 yil 16 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Bu qonunning asosiy maqsadi va vazifasi mehnat munosabatlarini bajarish jarayonida shikast olib nogiron bo‘lgan shaxslarga yetkazilgan zararlarni o‘z vaqtida qoplashdan iborat bo‘lib, mehnat jarayonida shikastlangan xodimlarning nogironlik to‘lovlarini o‘z vaqtida olishlarida muhim ahamiyatga ega.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganda ish beruvchiga va jabrlanuvchiga yoxud naf oluvchiga xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘ligining boshqa tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning sog‘ligi yoki hayotiga yetkazilgan zararning o‘rnini ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga sug‘urta puli doirasida qoplash majburiyatini oladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu qonunga ko‘ra xodimga yetkazilgan zararni qoplashda yetkazilgan zararni kelib chiqish holatlarini, xodimning zararni kelib chiqishidagi ayblilik darajasini, ish beruvchining ayblilik darajasini, nogironlik darajasini, keltirilgan zarar miqdorini aniqlashda sug‘urta idoralarining ishtiroki ta’minlanishi shart. Buning uchun ish beruvchi sodir bo‘lgan baxtsiz hodisa haqida sug‘urta idoralariga o‘z vaqtida xabar berishi lozim. Chunki ushbu qonunning 17-moddasiga ko‘ra, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz berganligi o‘ziga ayon bo‘lgan paytdan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay bu haqda sug‘urtalovchiga yozma shaklda bildirishi

belgilab qo‘yilgan. Chunki qonunning 18-moddasiga ko‘ra, sug‘urtalovchiga ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirishda ishtirok etish va zarur bo‘lgan hollarda tegishli ekspertlarni jalb qilish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisaga doir axborotlarni tekshirish huquqi berilgan. Ish beruvchining baxtsiz hodisa sodir etilganligi haqidagi xabarni o‘z vaqtida bermasligi sug‘urtalovchining yuqoridagi huquqlarini buzilishiga, sug‘urtalanuvchiga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlarning kechiktirilishiga olib keladi. Ana shu jihatdan ish beruvchining sug‘urta hodisasi haqida xabar berish majburiyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qonunda ish beruvchining ushbu majburiyati belgilangan bo‘lsa-da, uning ijrosini ta’minlamaganda qanday javobgarlik kelib chiqishi aniq berilmagan. Ish beruvchining javobgarligini qonunda aniqlab berilishi sug‘urtalovchining sug‘urta hodisasini kelib chiqishini va sug‘urta tovoni miqdorini aniqlashda hamda mehnat vazifalarini bajarish jarayonida nogiron bo‘lgan xodimlarga nogironlik to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lanishini kafolatlaydi. Ish beruvchiga bunday javobgarlikni belgilash sug‘urta tashkilotlari tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta tovoniga ta’sir etmasligi lozim.

Respublikamizda hozir sug‘urta bozorini va sug‘urta xizmatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgan bir vaqtda majburiy sug‘urtalashning yangi turlarini joriy qilishdan oldin amalda bo‘lib turgan majburiy sug‘urtalashning mexanizmi qay darajada amalga oshirilayotganligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Ya’ni, majburiy (davlat majburiy) sug‘urta shartnomalarining tarafi, ularning majburiyatlari va javobgarliklari tahlil etilganda, bu turdagi sug‘urta shartnomalarini tuzmaganlik uchun hech qanday javobgarlik choralarining mavjud emasligi sababli amaliyotda majburiy sug‘urta shartnomasi tuzish majburiyati yuklatilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan o‘z majburiyatlarini turlicha bajarishayotganliklarini kuzatish mumkin. Masalan, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 28-moddasiga ko‘ra, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan ijrochi o‘zining tugatilishi yoki bankrot bo‘lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste’molchining talablarini qondirish maqsadida o‘z javobgarligini sug‘urta qildirishi shart.

Moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste’molchiga yetkazilgan zarar uchun o‘zining javobgarligi to‘g‘risida sug‘urta shartnomasi borligi haqida iste’molchiga axborot berishi shart. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 29-moddasiga ko‘ra, auditorlik xizmatlari ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma faqat auditorlik tashkiloti javobgarligining sug‘urta polisi mavjud bo‘lgan taqdirda tuzilishi belgilangan. Shu kabi yana bir qator qonunlarda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga bunday majburiyat yuklatilgan bo‘lishiga qaramay, bu majburiyatni bajarmaganlik uchun hech qanday javobgarlik chorasi belgilanmagan.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik huquqiy javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonunining talablarini buzganlik uchun Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 492-moddasida, “Transport egalari fuqarolik huquqiy javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonunining talablarini buzganlik uchun 1351-moddada, 2015 yil 26 may kuni qabul qilingan “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonunning talablarini buzganlik uchun 1461-moddalarda ma’muriy javobgarlik choralari belgilanganligi sababli bu turdagi majburiy sug‘urtaning amaliyoti bir xilda ijro etilmoqda.

Fuqarolik huquqiy javobgarligini majburiy sug‘urtalashi lozim bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan bu kabi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga alohida javobgarlik choralarini ketma-ket kiritib borilishi, kodeksning hajmini sun’iy oshirishga olib keladi.

Rossiya Federatsiyasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida ham shu kabi javobgarlik choralari majburiy sug‘urta turlariga qarab belgilangan.

Majburiy sug‘urtani ijrosini bir xilda ta’minlash hamda majburiy sug‘urta sohasidagi yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish O‘zbekiston Respublikasining “Majburiy (davlat majburiy) sug‘urtani amalga oshirish to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilishni, ushbu qonunda majburiy sug‘urta shartnomasini tuzish tartibi, uni tuzish majburiyati yuklatilgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning ushbu shartnomani tuzmaganligi uchun javobgarligi, uning huquqiy oqibatlari aks ettirilishini taqozo etadi. Shuningdek, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddasida majburiy yoki davlat majburiy sug‘urta shartnomalarini tuzish majburiyati yuklatilgan shaxslar tomonidan bunday shartnomalar tuzmaganlik yoki o‘z vaqtida tuzmaganligi uchun javobgarlik belgilanishi lozim. Ya’ni, bitta moddada belgilanagan javobgarlik chorasi barcha majburiy (davlat majburiy) sug‘urta shartnomasi tuzish majburiyatiga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun ushbu majburiyatni bajarmaganligi uchun umumiy javobgarlikni nazarda tutadi. Bu esa o‘z majburiyatini bajarmagan jismoniy yoki yuridik shaxslarga javobgarlikni qo‘llashda adillik, tenglik tamoyillarini o‘zida aks ettirishi bilan bir qatorda qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 28-moddasiga ko‘ra, moliyaviy xizmatlar sohasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida “Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan ijrochi o‘zining tugatilishi yoki bankrot bo‘lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste’molchining talablarini qondirish maqsadida o‘z javobgarligini sug‘urta qildirishi shart” degan qoida belgilangan. Bizningcha, qonunning ushbu moddasini to‘liq amalga oshirish maqsadida bugungi kunda ayni moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi ijrochilar javobgarligini majburiy sug‘urtalashi lozimligi

aniqlashtirilishi lozim. Ya’ni, faoliyati yuzasidan javobgarligi majburiy sug‘urtalanishi lozim bo‘lgan moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi ijrochilarning ro‘yxati ishlab chiqilishi va tegishli organ tomonidan tasdiqlanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 922-moddasi beshinchi xatboshisida fuqaroga o‘z hayoti yoki sog‘ligini sug‘urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emasligi belgilangan. Yo‘lovchilar zimmasiga o‘z hayotlari va sog‘ligini majburiy sug‘urtalashni yuklatish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yuqoridagi me’yorlari talabiga zid keladi. Kodeksning ushbu talabi inobatga olingan holda O‘zbekiston Respublikasining “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy foydalaniladigan havo, temir yo‘l, ichki suv va avtomobil transporti yo‘lovchilarining majburiy shaxsiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonunini bekor qilinishiga asos bo‘ldi.

Bir qator sug‘urta bozori rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sug‘urtaning majburiy turidan batamom voz kechilib, sug‘urta shartnomasi tuzish faqat ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi. Xuddi shunday sug‘urta bozori rivojlangan Shvetsiyada ham faqat transport haydovchilarining uchinchi shaxs oldidagi javobgarligi hamda ayrim tashkilotlarning zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarligi majburiy sug‘urtalanadi, boshqa sug‘urta turlari esa faqat ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi. Aynan O‘zbekiston Respublikasida rivojlanayotgan majburiy sug‘urtaning turlari ham fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishi bilan Shvetsiya qonunchiligiga o‘xshashligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, sug‘urtalovchining majburiyatlari tizimida sug‘urta shartnomasi tuzish jarayonida sug‘urta shartnomasi mazmunini tushuntirish, sug‘urta shartnomasi bilan bog‘liq hujjatlarni qonuniy rasmiylashtirish asosiy o‘rin tutishi lozim.

Ye.V.Pavlova sug‘urtalovchining huquq va majburiyatlarini tahlil etar ekan, u shunday fikrni ilgari suradi: “Sug‘urtalovchining ‘yuqori ishonch’ tamoyilini o‘zida ifoda etuvchi asosiy majburiyatlaridan biri sug‘urta shartnomasi terminlarini, shartlarini va boshqa sug‘urtalovchi uchun mavhum bo‘lgan holatlarni tushuntirishdir”. Ye.V.Pavlovaning ushbu fikrlari juda o‘rinli bo‘lib, haqiqatdan ham sug‘urtalovchiga sug‘urta terminlari va sug‘urta shartlarini sug‘urta qildiruvchi uchun mavhum bo‘lgan boshqa sug‘urta bilan bog‘liq holatlarni tushuntirish majburiyatini yuklash, birinchidan, sug‘urtalovchining sug‘urtaga oid huquqiy bilimlarini oshirishga, ikkinchidan, sug‘urta shartnomasida bir taraf sifatida ishtirok etish jarayonida o‘zining huquqlarini va majburiyatlarini to‘liq anglashiga, uchinchidan, sug‘urta shartnomasi tarafining huquq va majburiyatlarini o‘rinli talab qilish imkonini yaratadi.

B.Yu.Fogelson ham o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida sug‘urta shartnomasi tarafining huquq va majburiyatlari, ularni bajarmaganlik uchun qo‘llaniladigan javobgarlikni tahlil etib,

sug‘urtaga oid barcha huquq va majburiyatlar bir qonun hujjatida jamlanmaganligi sug‘urta tarafining o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda qonunbuzarlikka yo‘l qo‘yilishiga olib kelayotganligini, ayrim huquq va majburiyatlar aniqlashtirilmaganligi natijasida ular umuman ijro etilmay kelayotganligini qayd etadi.

Biz B.Yu.Fogelson va Ye.V.Pavlovalar fikriga to‘liq qo‘shilgan holda “sug‘urta shartnomasini va u bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni qonuniy rasmiylashtirish” sug‘urtalovchining asosiy majburiyati sifatida belgilanishini o‘rinli deb hisoblaymiz. Chunki amaliyotda sug‘urta shartnomasining noto‘g‘ri rasmiylashtirilganligi ham sug‘urta tovonini to‘lashni rad etishga asos bo‘lib kelmoqda. Sug‘urtalovchi uchun bunday majburiyatning belgilanishi sug‘urta shartnomalarini va u bilan bog‘liq boshqa hujjatlarni rasmiylashtirishda qonuniylikni ta’minlashga, eng asosiysi, sug‘urta qildiruvchining huquqi buzilishini oldini olishga xizmat qiladi.